

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KON ISHLARI ASOSLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kon ishlari asoslari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kon ishlari asoslari

1. Konchilik korxonalari va ularning vazifalari;
2. Foydali qazilma va uning turlarini;
3. Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olish;
4. Ochiq kon ishlarida kon massasini qazib-yuklashga tayyorlash;
5. Tog‘ jinslarini qazib-yuklashga tayyorlash;
6. Ochiq kon ishlarida qazib-yuklash ishlari;
7. Kon massasini tashish va tashish turlari;
8. Qoplama tog‘ jinslaridan to‘kma hosil qilish ishlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Konchilik korxonalari va ularning vazifalari	Konchilik sanoatining o'rni va ahamiyati, konchilik sanoati va konchilik korxonalari haqida bilishi.	5 %	2 ta
2	Foydali qazilma va uning turlarini	Kon jinslari va foydali qazilmalar to'g'risida asosiy ma'lumotlar, foydali qazilma konlarining shakllari va yotish elementlarini bilishi	10 %	4 ta
3	Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olish.	Konlarni yer osti usulida qazib olish ishlari bo'yicha tushuncha. Kon lahimlari va ularning turlari. Vertikal kon lahimlari. Gorizontal kon lahimlari. Qiya kon lahimlari. Kon lahimlarini mustahkamlash ishlari. Mustahkamlagich materiallari haqida bilimlarga ega bo'lishi.	25 %	10 ta
4	Ochiq kon ishlarida kon massasini qazib-yuklashga tayyorlash	Ochiq kon ishlarining tabiiy sharoitlarga bog'liqligi. Karyerlarda buldozer, skreper va bir cho'michli yuklagichlarning qo'llanilishi. Ochiq kon ishlari jarayonlari va davrlari..Konlarni ochiq usulda qazib olish va uning mohiyati to'g'risida tushunchalar. Karyer elementlari va ularning parametrlari. Pog'ona va uning elementlari. Kon jinslari-ochiq kon ishlari obykti haqida bilimlarga ega bo'lishi.	25 %	10 ta
5	Tog' jinslarini qazib-yuklashga tayyorlash	Kon jinslarini qazishga tayyorlash usullari. Portlatish skvajinalari va ularning parametrlari. Kon jinslarining burg'ilanuvchanligi. Burg'ilash stanoklari va portlatish skvajinalarining burg'ilash texnologiyasi. Burg'ilash stanoklarining unumdorligini hisoblash. Kon jinslarining portlovchanligi va portlovchi modda sarfi. Skvajinalarning joylashish va portlatish tartibi. Skvajina zaryadining konstruksiyasi va hisoblash prinsiplari. Ikkilamchi maydalash. Skvajinalarni burg'ilash va portlatishda yordamchi ishlarni mexanizatsiyalash. Osmaydalagichlar yordamida kon jinslarini qazishga tayyorlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	7,5 %	3 ta
6	Ochiq kon ishlarida qazib-yuklash ishlari	Qazib-yuklash uskunalari va qazib-yuklash ishlarining texnologik sxemalari. Ekskavatorlar tasnifi va ularning texnologik tavsifi. Mexanik cho'michli ekskavatorlar va draglaynlarning texnologik parametrlari. Kon massasini qazib olish texnologiyasi va mexanik cho'michli hamda	17,5 %	7 ta

		draglaynlar kavjoylarining parametrlari. Gidravlik ekskavatorlarning texnologik parametrlari. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning texnologik o'lchamlari. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning qazish texnologiyasi va kavjoylari o'lchamlari. Kon massasini qazib-yuklashda yordamchi ishlarni mexanizatsiyalash haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
7	Kon massasini tashish va tashish turlari	Karyer transportining o'ziga xos xususiyatlari. Karyer yuk aylanmasi va yuk potoki. Karyer transportining asosiy ko'rinishlari va texnologik tavsiflari. Temir yo'l transporti yollari va harakatlanuvchi sostavlarning tavsifi. Pog'onalarda almashish operatsiyalarini tashkil qilish. Poyezdning foydali massasi, temir yo'lining yuk o'tkazish qobiliyati va harakatlanuvchi sostav parkini hisoblash. Karyer avtotransporti yo'llari va harakatlanish sostavining tavsifi. Avtoag'dargich parki va yo'llarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblash. Tasmali konveyerlarning texnologik tavsifi, qo'llanish sharoitlari va unumdorligi. Karyerlarda turli transport vositalari kombinatsiyasi haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta
8	Qoplama tog' jinslaridan to'kma hosil qilish ishlari	Ag'darma hosil qilish jarayonining mohiyati va uning boshqa jarayonlar bilan bog'liqligi. Temir yo'l transportida ag'darma hosil qilish. Avtotransport qo'llanganda ag'darma hosil qilish. Konveyer transportida ag'darma hosil qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	5 %	2 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	57.5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	25 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	17.5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Hayitov O.G'. Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish jarayonlari. Darslik. – T.: “Donishmand ziyosi”, 2022.
2. Sagatov N.X., Aripova L.T., Petrosov YU.E., Djabbarov M.N. Ochiq kon ishlari texnologiyasi va kompleks mexanizatsiyalash. O‘quv qo‘llanma.– T.:Kamalak press, 2015.
3. Sagatov N.X. Kon ishlari asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDTU, 2015.
4. Репин Н.Я., Репин Л.Н. Процессы открытых горных работ. Учебник. – М.: 2015.
5. Raximov V.R., Ubaydullaev N. Burg‘ilash va portlatish ishlari. Toshkent 2007.
6. Кутузов Б.Н., 2007. Методы ведения взрывных работ. Часть 1.М. 2007.
7. Ржевский В.В. Открытые горные работы. Производственные процессы. – М.: Книжный дом “Либроком”, 2010.
8. Ю.И.Анистратов, К.Ю.Анистратов, М.И.Щадов Справочник по открытым горным работам: М.: НТЦ «Горное дело», 2020.
9. Кирюшина Ю.В., Вокин В.Н., Кадеров М.Ю. Технология и безопасность взрывных работ. Красноярск 2018. [ARMda elektron nusxasi mavjud]
10. Кутузов Б.Н., Скоробогатов В. М., Ерофеев И.Ю., Справочник взрывника. М.: Недра 2012.